


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**60230300 - *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili)*
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil «09» 09 dagi 302- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> bacheloriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1 <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2 Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1 <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2 <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3 <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4 <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlarning kasbiy vazifalar	5
2. <i>60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bachelorlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
Bibliografik ma'lumotlar.....	8
Kelishuv varag'i.....	9

1. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kredit-modul tizimining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestasiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga "bakalavr" malakasi (darajasi), "filolog, pedagog (sharq va g'arb tillari bilan)" kvalifikatsiyasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 60230300 - *Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talabi asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega hisoblanadi.

1.1.3. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi.

1.2.1. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)– gumanitar sohadagi yo‘nalish bo‘lib, bitiruvchilarning kasbiy faoliyati mamlakat va xalqaro qo‘lyozma fondlari, muzey, arxiv va boshqa markaz, xazinalarda saqlanayotgan mumtoz adabiy meros namunalarini o‘rganish; o‘zbek matnshunosligi tarixining davrlar kesimidagi shakllanish bosqichlarini aniqlash; mumtoz adabiy manbalarning asliyat asosidagi yig‘ma va tanqidiy matnlarini tayyorlash prinsiplarini ishlab chiqish; eski o‘zbek tili, arab va fors tillarining nazariy va amaliy asoslari, lug‘at boyligi, mazkur tillarda yaratilgan ilmiy va badiiy adabiyot, umumiy tilshunoslikning nazariy masalalari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, manbashunoslik masalalari, tarjima nazariyasi va amaliyoti asoslari, til va adabiyot o‘qitish metodikasi, dars berish mahorati va nutq madaniyati masalalarini manbashunoslik va matnshunoslik negizida tadqiq va tahqiq etishdan iborat.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.

1.2.2. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va texnikumlari;
- ma'naviy meros muhofazasi bilan bog'liq qo'mita va davlat idoralari;
- sharq va g'arb tillaridan tarjimon talab etiladigan tashkilotlar;
- gazeta va jurnallar tahririyati, radio va televideniye, nashriyotlar;
- sohaga oid ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, kutubxonalar;
- ma'naviy targ'ibot ishlari bo'yicha mutaxassis talab etiladigan hokimiyat va boshqa boshqaruv tizimlari;
- turli qo'lyozma va kitoblar saqlanadigan fondlar;
- manbashunos ekspert talab etiladigan davlat xavfsizligi va ichki ishlar vazirligi tizimi;
- ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlar.

1.2.3. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy va ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va texnikumlarda)*
- *tarjimonlik;*
- *konsalting xizmati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

1.2.4. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr

kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida ilmiy xodim, tadqiqotchi-izlanuvchi sifatida namunaviy tadqiq usullari va matnshunoslikning amaliy yo'nalishida eksperimentlar o'tkazish va natijalar bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berish;

- mamlakat miqyosida davlat va xususiy fondlardagi adabiy manbalarning to'la katalogini bosqichma-bosqich tayyorlash bo'yicha ilmiy loyihalar majmuini yaratish;

- loyiha resursidagi qo'lyozma va toshbosma kitoblarning, xususan, adabiy-tarixiy manbalarning elektron versiyasini, shuningdek, ularning monografik ilmiy tavsiflarini tayyorlash;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha ilmiy sharhlar yaratish, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy konferensiyalar ishida ma'ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirok etish;

- adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida mamlakat va xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar davriy monitoringini o'tkazish va muvofiqlashtirib borish;

- respublika va xorijdagi yetakchi ilmiy muassasalar bilan ilmiy-amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- ilmiy va sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;

- internet tarmog'ida yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- universitet qo'lyozma va toshbosma kitoblar fondida saqlanayotgan manbalar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar metodikasini yaxlit tizimda umumlashtirib, adabiy-tarixiy merosga yondashuvning mumtoz an'ana va zamonaviy yutuqlar uyg'unligiga asoslangan tamoyillarini ishlab chiqish;

- hosil qilingan nazariy-tajribaviy natijalarni ilmiy muomalaga olib kirish;

- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga ma'naviy merosga muhabbat, sog'lom e'tiqodga chanqoqlik, o'zaro mehr-shafqat g'oyasini singdirish;

- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

- globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma'naviy merosning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yakka tartibda suhbat o'tkazish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– mumtoz merosni o‘rganish va ommalashtirishga oid turli tadbir, anjuman va ma‘rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;

– davlat va xususiy tarmoq tizimidagi muzey, arxivlarda muzeyshunos va arxivshunos sifatida manbashunoslik faoliyatini tashkil qilish va boshqarish;

– ARMda axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va bevosita ishtirok etish;

– jamoada ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

Pedagogik faoliyatida (maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari va texnikumlarida):

– maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta‘lim tizimi muassasalari hamda professional ta‘lim muassasalari va texnikumlarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari hamda o‘rganilgan sharq va g‘arb tillaridan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

– o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma‘lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

– mustaqil ta‘lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar bo‘yicha o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish;

Tarjimonlik faoliyatida:

– davlat tashkilotlari va davlatga qarashli bo‘lmagan xususiy tashkilotlarda o‘rganilgan chet tillardan tarjimonlik qilish, ish qog‘ozlari bilan ishlash;

– turli muassasalarda turist yo‘lboshlovchisi, havo yo‘llarida servis xodimi, turli firma va mehmonxonalarda ma‘muriy xodim va menejer xizmatini ko‘rsata olish;

Konsalting xizmati faoliyatida:

– yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

– ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

1.2.5. Ta‘limni davom ettirish imkoniyatlari

60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)
bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan iqtisodiyot sohalarini qamrab oluvchi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan muddatlarda o'qishni davom ettirishi mumkin.

Quyidagi bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:

- matnshunos-filolog, o'qituvchi.

2. 60230300 - Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga
qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- til va adabiyot fanlarini o'qitishda na'munaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash; zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

- Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiyani, ilm-fanni rivojlantirishda bo'layotgan islohotlar va ularning amaldagi ifodasi, mantiqiy mushohada yuritish va to'g'ri qaror qabul qilishni qo'lyozma matnlarni o'rganish orqali ko'rsatib berish;

- Mumtoz arab tili va mumtoz fors tilini bilish ko'nikmasi orqali mumtoz matnlarni tahlil qilish malakasini shakllantirish;

- o'zbek tili va adabiyoti tarixi, ta'limoti va nazariyalari yirik namoyondalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiyasi va ilmiy yondashuvlarini bilish;

- o'zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o'zbek tili tarixi, o'zbek folklori, o'zbek dialektologiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tili, o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, matnshunoslik, navoiyshunoslik, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, ilmiy tadqiqot asoslari, turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg'ay olish, ilmiy faoliyatda qo'llay olish va o'quvchilarga yetkaza olish;

- hujjatchilik tarixi, xususan, sharq hujjatchiligi, hujjat turlari va ish yuritish asoslari, hujjat tili va uslublari haqidagi tasavvurga ega bo'lish; davlat tilida yoziladigan har qanday huquqiy-me'yoriy hujjatlarni shakllantirish va tahrir qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- xattotlik san'ati, yozuv tarixi, xat turlari va ularni san'at darajasida yozish malakasini shakllantirish;

- aruz vazni va uning qoidalari, mumtoz she'riy asarlarning o'lchovini aniqlash va mumtoz janrlar badiiyatini o'rganish; islomgacha bo'lgan Sharq adabiyotshunosligi manbalari, adabiy oqim va yo'nalishlar, adabiyotshunoslik janrlarining genetik ildizlari va qo'llanilish mohiyatini tushunish; tasavvufning nazariy manbalari, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari, badiiy asarlar tarkibidagi irfoniy va tasavvufiy g'oyalarni anglash, ramz va timsollarning ma'nolarini sharhlash bo'yicha tushunchaga ega bo'lish, Sharq tazkirachiligi tarixini o'rganish orqali adiblarning tarjimai holi va ijodiy merosi haqida bilimlarni egallash; adabiy matn tabiatini falsafiy asosda anglash, tadqiq etish va matnni tahrir qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- eski o'zbek yozuvini o'qish va yoza olish, qo'lyozma va toshbosma matnlarni mustaqil o'qish, lug'atshunoslik, matnshunoslik nazariyasi, folklor matnshunosligi va adabiy manbashunoslik sohalarini o'rganish, yurtimizda yashab o'tgan ijodkorlarning qo'lyozmalarini tadqiq qilish orqali yangi asarlarini topish, fanga ma'lum bo'lmagan ijodkorlarni kashf etish, islom dini ta'sirida shakllangan kitobchilik an'analarini tahlil qila olish, mumtoz sharq tillari (arab. fors)ning asarlardagi o'rni, xattotlik san'ati va yozuv turlarini yozish va farqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- Navoiy asarlarini o'rganish, qo'lyozmalari va ularning nusxalarini qiyoslash, nashriy nusxalardagi xatoliklarni aniqlash, shoir g'azallarida yashiringan ma'nolarni to'g'ri tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- Zamonaviy matnshunoslik muammolari va bugungi kundagi yechimlari, mustaqillikkacha bo'lgan davrda nashr qilingan matnlardagi muammolar va ularning yechimlari haqida atroflicha fikr yurita olish;

- Turkiy yozma yodgorliklarda til va uslub muammosi, tilning tarixiy taraqqiyoti, grammatikasi, rivojlanish bosqichlari, shevashunoslik, lahjalar va

ularning taraqqiyoti, qadimgi soʻzlar lugʻatini tuzish, lugʻatshunoslik ilmini puxta oʻrganish;

- mumtoz adabiyotda islom taʼlimotining kirib kelishi, matnshunoslik rivojida dinning taʼsiri, islom tamadduni, ilm-fanga taʼsiri, tarbiyada islom taʼsiri kabilarni oʻrganish, mumtoz poetika, adabiyotda soʻzning oʻrni kabilarni ilgʻash;

- gapning semantik, modal, kommunikativ aspekti, oʻzbek tilshunosligida matn, xususan, badiiy matnning semantik-sintaktik va lingvistik mexanizmlarini, oʻzbek tilining mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon boʻlish qonuniyatlarini anglash; leksik maʼno va uni belgilovchi omillar, leksik maʼnoning struktirasi, leksik maʼnoni tahlil qilish usullari hamda shu sohada qoʻlga kiritilgan jahon va oʻzbek tilshunosligidagi soʻnggi yutuqlarida xabardor boʻlish; nutq madaniyati va uslubiati asoslarini oʻrganish;

- oʻqitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy oʻrta taʼlim maktablari va oʻrta maxsus taʼlimi mazmunida fanning oʻrnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari boʻyicha pedagogik oʻqishlarda maʼruzalar oʻqishi, umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilar bilan muloqatda har bir yosh doirasiga psixologik yondashish va oʻrta maxsus taʼlimida differensial taʼlimni yoʻlga qoʻya olishi, oʻquv jarayoni bilan bogʻliq barcha hujjatlarni yurita olish;

- yangi oʻzbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish malakasi va bilimiga ega boʻlish; oʻzbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyotshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, oʻzbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, oʻzbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida oʻrganilishi, oʻzbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz, turkman adabiyoti toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlish; bu xalqlar adabiyoti namoyondalari hayoti va ijodi, folklori, yozma adabiyoti namunalaridan xabardor boʻlish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasi tadqiq qilish orqali tanqidiy qarashni shakllantirish;

- axborotlarni toʻgʻri ifoda etish asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim;

- taʼlim yoʻnalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi boʻyicha kelgusida taʼlimni davom ettirishga ongli munosabatda boʻlishiga koʻmaklashishi kerak.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, eski o'zbek tili, arab va fors tillarining fonetik tizimi, morfologiyasi, sintaksisi, og'zaki va yozma nutq; matnshunoslik tadqiqotlari monotoringi; nutq madaniyati; so'z boyligi; matn tarixi, monografik ilmiy tavsif, ilmiy-tanqidiy matn; yagona va ko'p nusxali matn, matn tahqiqi, matn talqini; ilmiy apparat; ilmiy ko'rsatkichlar tartibi; mumtoz matn tili; adabiy jarayon; milliy adabiyot, ijodkor individualligi; matnshunoslik maktablari; kitobat va xattotlik san'ati; matn aniqligi; adabiyot tarixi; o'zbek matnshunosligi tarixi; adabiy manbalar katalogi; tarixiy-adabiy asar; matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, metodika.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILDI:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

 m.o'.
Rektor  Sh.Sirojiddinov
202__ yil «__» _____

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi

 Direktor  Sh.Yakubov

202__ -yil «__» _____

M.O'.


O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

 Direktor  N.Mahmudov

202__ -yil «__» _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy
nomidagi Davlat adabiyot muzeyi

 Direktor  J.Eshonqulov

202__ -yil «__» _____

M.O'.